ALOHIDA TA’LIMGA EXTIYOJLARI BO’LGAN BOLALARNI TENGDOSHLARIGA QO’SHISHDA PEDAGOGNING ROLI

Qodirova Yodgorxon Tulkinovna

Pedagog tarbiyachi

yodgaroyqodirova@gmail.com

935727511

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi alohida ta’limga extiyoji bor bo’lgan bolalrga ta’lim berish ularning ijtimoiy, xissiy, qognitiv va jismoniy extiyojlarini uyg’unlashtirishda pedagogning o’rni xaqida tushuncha beriladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziya, hamkorlik, do'stlashuv, etiborni rivojlantirish, o'yinlar.

Kirish: Maktabgacha ta’lim tashkilotida inklyuziv guruxlarni tashkil etish, alohida ta’limga ehtiyoji bo’lgan bolalarga g’amxo’rlik qilish va inklyuziv ta’limni joriy etish orqali sifatli ta’lim olishlari uchun o’qituvchi pedagoglarni kasbiy faoliyatini takomillashtirish xozirgi kunda O’zbekistonda dolzarb mavzulardan biridir. Inklyuziv guruh tarbiyachisi –nogiron bolalarni maktabgacha ta’lim sharoitida ijtimoiylashtirishni ta’minlaydigan mutaxassis. Ular o’quv dasturlarini o’yin orqali kundalik faoliyatlariga moslashtiradi, qulay muhit yaratadi va psixologlar, ota-onalar bilan hamkorlikda alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalarni rivojlanishini qo’llab-quvvatlaydi. Inkluziv yo’nalishdagi alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalar uchun ta’lim va tarbiya jarayoni davlat o’quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, uning asosida individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqiladi. Bunday individual inkluziv dasturda alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo’lgan har bir bolaning ta’lim olishi,

rivojlanishi ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadigan o'quv muhiti va o'qitish usullarini moslashtirilishi zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolani ta'lim olish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori, pedagog va mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish.

Asosiy qism: Tarbiyachi-pedagog PTPK xulosasiga asosan berilgan tashxislar: eshitish va ko'rish qobiliyatini buzilishi, nutq patoligiyalari, mushak skelet tizimining kasalliklari, aqliy zaiflikning yengil va o'rta shakllari, autizim spektori buzilishi bo'lgan bolalar bilan logoped-o'qituvchi, psixolog hamda kerak bo'lgan hollarda LFK mutaxasisi bilan hamkorlikda ish olib boradi. Tarbiyachi-pedagogning vazifasi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni tengdoshlariga qo'shishda nima va qanday qilish kerakligini aytib berish emas, balki ularga o'z hohishlarini namoyon qilishlari uchun yordam berishdir. Ba'zilariga so'z bilan yordam berish, boshqalarni rag'batlantirish, yana boshqalariga kerak bo'lsa amaliy yordam berish o'yin faoliyatini bola uchun yanada qiziqarli bo'lishi uchun tarbiyachi o'zi qatnashish hamda bola shaxsiga yondashuvi uni qiziqtirgan mashg'ulotini oldindan kuzatish orqali bilishi va rejalashtirishi zarurdir. Misol: Alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan bola sog'lom bola singari intilishi, faoliyatlarda faol qatnashishiga sharoit yaratish uchun tarbiyachi shunday rejalashtirishi kerakki, bola quyidagi imkoniyatlarni tanlashga ega bo'lishlari, bunda har bir bola qaysi markazdan foydalnaishini istashi yoki legodan o'zi holagan shakllarni yasashi, ertak terapiyasi orqali bola o'z qaxramonini yaratadi. Barmoq teatrida ertaklar so'zga kirgan boladagi tortinchoqlikni yo'qotishda ya'ni tarbiyachiga emas ertak qaxramonlari bilan so'zlashish orqali bilish jarayonini rivojlantirish, "Men" konsepsiyasini bolada o'stirish, o'zini mustaqil boshqara olish hislarini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga so'g'lom bolalar bilan birgalikda rivojlantiruvchi muhitni yaratish, unga tanlangan kerakli resurslarni

bosqichma-bosqich murakkab elementlarini tanlab bola moslashuvini oshirib borish pedagogning yutug'i hisoblanadi.

O'zbekistion Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr kungi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-152-sonli Farmoni asosida alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlariga qo'shish va ular bilan teng rovojlanishi uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inkluziv guruhlar tashkil etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotning inkluziv guruxlarining o'ziga xos xususiyatlari:

- alohida extiyojga muxtoj bolalarning rivojlanishida pedagoglar bilan birgalikda mutaxassislar jamoasi shug'ullanadilar;
- alohida extiyojga muxtoj bolalarning qanchasini bir guruxga muvaffaqiyatli kiritish mumkinligini aniqlab olish zaruz. Odatda bu miqdor har bir bolaning yoshiga qarab belgilanadi;
- ota-onalar va boshqa oila a'zolari bolani rivojlanishiga doir qaror qabul qilinishida ishtiro etishi;
- dasturlarning samaradorligi muntazam baholanadi.

Xulosa: Inkluziv ta'lim g'oyalari ijtimoiy-madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L.Vigotskiy (1896-1934-y) inkluziv ta'lim g'oyasining asoschisi bo'lib, uning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi orqali bollar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini individuallashtirish. Alohida extiyoji bor bolalar inklyuziyasi 6-bet

2. https://niidpo.ru/blog/pedagog-inklyuzivnogo-obrazovaniya

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr kungi ”Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-152-sonli Farmoni

4. III-bob. Inkluziv ta’lim 30-bet

5. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi 13-bet.

6. ”Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi”